

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Shermuhammadov**

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot ..... 6

PEDAGOGIKA

**T.Egamberdiyeva, O.Ashurova**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari ..... 9

**U.Maqsdov, R.Rahmonova**

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida ..... 12

**M.Suyunova**

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari ..... 17

**N.Saidova, B.Abdullayeva**

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentliligini rivojlantirishni modeli ..... 20

**X.Tojiboyeva**

O'smir yoshdagagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ..... 24

**A.Kalliyev**

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar ..... 27

**I.Usmonaliyev**

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili ..... 32

FALSAFA, SIYOSAT

**A.Yuldashev**

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati ..... 37

**Q.Aliqulov**

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshtar iqtisodiy faolligiga ta'siri ..... 41

ТАРИХ

**X.Boymirzayev, Z.Jobborov**

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan ..... 46

**X.Mamajonov**

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtaidagi manfaatlar to'qnashushi va diplomatik aloqalarning boshlanishi ..... 49

**A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov**

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida ..... 53

**A.Abduxalimov**

Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi ..... 57

**I.Yusupov**

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi ..... 62

**I.Turdiyev**

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari ..... 67

**Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov**

O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti ..... 70

ADABIYOTSHUNOSLIK

**L.Axmadaliev**

Po'latjon Qayyumiylar zamondoshlari xotirasida ..... 85

## PEDAGOGIKA

davr talablarini chuqur anglay bilishni, yangi bilimlarni izlab topish va ularni talabalarga o'rgatishda turli kreativ, ya'ni tanqidiy fikrlash va ijobjiy ta'riflar berish, yangi olingan bilimlarni qayta ishlash va o'z amaliy faoliyatimizda samarali qo'llay bila olishimizni talab qiladi[11:101].

Ijodkor talabalar bilan ishlashda ko'proq individual tarzda ishlash tizimiga alohida urg'u bergen holda dars samaradorligini oshirish zarur. Talabalar faqat darsdagi mashg'ulotlar bilan shegaralanib qolmasdan qo'shimcha kompleksli ta'lif-tarbiya ishlarini olib borishda pedagoglarning faolligini oshirish, ijodkor talabalarning imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda professional asarlarni bosqichma-bosqish mukammal o'rgatib borish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, mazkur jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vosita va unsurlarni pedagog o'z mahorati bilan bartaraf eta oladi va talabani kelajakda yaxshi san'atkor bo'lishiga zamin yaratadi. Mohir pedagog iqtidori talabalar bilan ishlashda talabalarni darsga qiziqtirish usullarini yaxshi bilishi, ular bilan hamkorlik muhitini yaratishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi[12:5]. Shunday ekan, ijodkor talabalar bilan ishlashadigan pedagog o'z mahoratini zamonaviy pedagogika usullari bilan ham doimiy tarizda boyitib borishi zarur hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston o'qituvchi va murabiylariga"/ gaz. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, "Sharq". 2021. №40. (Mirziyoyev Sh. "Uzbekistan teachers and murams"/ gas. Literature and art of Uzbekistan. – Tashkent, "Sharq". 2021. №40)
2. Musurmanova O. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Yoshlar. 2020. – 376 b. (Musurmanova O. General pedagogy. – Tashkent: Yoshlar. 2020. – 376 p)
3. Jamolova D. O'rta asr sharq allomalarining musiqiy qarashlari //jur. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xabarlari №3. – Toshkent.: 2019. Donishmand ziyozi. – 99B. (60-63-betlar). (Jamalova D. Musical views of medieval Eastern scholars // jur. Posts of the State Institute of art and culture of Uzbekistan №3. – Tashkent.: 2019. Donishmand ziyozi. – 99p. Pp. 60-63)
4. Rashidova Z. Madaniyat va san'at sohasi pedagogikasida ijodiy ishlab chiqarishning mohiyati//jur. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. №4-1 (88), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022 y. – 359 b. – Bosma nashrning elektron varianti (Rashidova Z. The essence of creative production in the pedagogy of the field of culture and art //jur. Bulletin of the Khorezm Mamun Academy: scientific journal. No. 4-1 (88), Khorezm Mamun Academy, 2022. – 359 p. Electronic print variant)
5. Qodirov Sh. Pedagogik mahorat. – Namangan, NamMPI. 2006. – 98 b. (Qodirov Sh. Pedagogical skills. – Namangan, NSU. 2006. – 98 p)
6. Asqarov A., Axrorova Z., Ro'zimatov E., Sadikova Sh., Sodikov U. Umumiy pedagogika. – Toshkent.:2018. – 330 b. (Askarov A., Akhrorova Z., Rozimatov E., Sadikova Sh., Sodikov U. General pedagogy. – Tashkent.:2018. – 330 p)
7. Qarang: Mansurbekova F. Ijodkor shaxslarni tarbiyalashda innovatsion-pedagogik usullar//konf. Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi. – Toshkent.: 2021. Fan ziyozi. – 501 b. 359-362 betlar. (See: Mansurbekova F. Innovative-pedagogical methods in the education of creative persons//conf. The combination of Science and innovation in the scientific study of folklore, language and culture issues. – Tashkent.: 2021. Fan ziyozi. – 501 p. Pp. 359-362)
8. O'sha yerda (There)
9. Abdullayeva SH.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Saitov S.S. Pedagogika. – Toshkent.: 2014. Fan. – 506 b. (Abdullaeva Sh.A., Akhatova D.A., Sabirov B.B., Saitov S.S. Pedagogy. – Tashkent.: 2014. Fan. – 506 p.)
10. Niyozmetova T. O'qituvchining pedagogik mahorati. – Toshkent.: O'qituvchi, 1980. – 32b. (Niyozmetova T. Teaching pedagogical skills. – Tashkent.: O'qituvchi. 1980. – 32p)
11. Nishonboyeva Q. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda qadriyatlarning o'rni va madaniy kompetentlik masalasi. Madaniyat va san'at soxasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz//konf. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni. – Toshkent.: Oltin meros press. 2020. – 488 b. (100-109 betlar). (Nishbaeva Q. The role of values and the issue of cultural competence in increasing the intellectual potential of young people . Training of qualified personnel in the field of culture and art – our main goal//conf. The role of culture and art in the development of the renewing Uzbekistan. – Tashkent.: Oltin meros press. 2020. – 488 p. Pp. 100-109)
12. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, O'qituvchi. 2004. – 102 b. (Yoldoshev J., Usmanov S. Basics of pedagogical technology. – Tashkent, O'qituvchi. 2004. - 102 p.)

**TARIXIY TAFAKKUR ORQALI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA  
TAYYORLASH OMILLARI, USULLARINI PEDAGOGIK TAXLILI**

**MECHANISMS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY  
THROUGH HISTORICAL THINKING.**

**МЕХАНИЗМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ.**

**Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'li<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'li**

– Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqola tarixiy tafakkur orgali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari haqida bo'lib, bugungi kunda pedagogik yo'naishida ta'lim olayotgan bo'lg'usi pedagoglarning ham kasbiy, ham ma'naviy ham ruhiy dunyoqarashlarini tarixiy tafakkur asnosida kamol toptirib borish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida muhim o'r'in tutuvchi soha vakili sifatida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy komponentliklarini fan yuzasidangina emas balki, tarixiy tafakkur, tarixiy ong bilan chambarchas bog'lagan holda ta'limjarayonida olib borish masalalari maqolada atroflicha yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье речь идет о механизмах подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности через историческое мышление, а также на основе исторического мышления вызревают профессиональные духовные мировоззрения будущих педагогов, обучающихся в сфере педагогики. Также вопросы проведения профессиональных компонентов будущих учителей как представителя сферы, играющей важную роль в развитии нашей страны, связаны не только с наукой, но также и с историческим мышлением и сознанием.*

**Abstract**

*This article is about the mechanisms of preparing future teachers for professional activities through historical thinking, and the professional and spiritual worldviews of future pedagogues who are studying in the field of pedagogy today are matured on the basis of historical thinking. Also, the issues of conducting the professional components of future teachers as a representative of the field that plays an important role in the development of our country are not only related to science, but closely connected with historical thinking and historical consciousness.*

**Kalit so'zlar:** Tarixiy tafakkur, kasbiy komponentlik, vatanparvarlik, bo'lajak o'qituvchi, g'oya, shakllantirish, metod, pedagogik jarayon, madaniy meros.

**Ключевые слова:** историческое мышление, профессиональный компонент, патриотизм, будущий учитель, идея, формирование, метод, педагогический процесс, культурное наследие.

**Key words:** Historical thinking, professional component, patriotism, future teacher, idea, formation, method, pedagogical process, cultural heritage.

**KIRISH**

Tarixni o'rganish bo'lajak pedagoglarda tarixiy tafakkurining yuksalishiga olib keladi. O'tmish madaniy merosini o'rganish murakkab jarayon sanaladi. Madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzlusiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur[1,58]

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy konpetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida shaxsning har tomonlama yetuk, barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlovchi muhitning yaratilishiga e'tibor qaratilmoqda va bu yo'lda keng ko'lamlı harakatlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchi maqomini yuksaltirish, uning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirishga qaratilgan meyoriy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyatga tadbiq etildi.

Prezident Sh.Mirziyoyev "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-hatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va

## PEDAGOGIKA

ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlaning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" [2,23] deganlari bejiz emas. Chunki asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosimiz va an'analarimiz inson ruhiyatini, tarixiy tafakkurini va milliy g'ururini shakllantiribgina qolmay, insonni vatanga muhabbat va uning o'tmishi, buguni va kelajagi uchun daxldor etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Buning uchun, avvalo, ilm dargohlarida o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lif va tarbiya beruvchi bo'lajak pedagoglarni zamon talablariga xos tarzda, milliylikka va tarixiylikka daxldor etib tarbiyalash, ularning tarixiy tafakkurini o'stirish muhim va kechiktirib bo'lmas vazifa hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usining shakllanganligini aniqlash uchun bu tushunchaning mohiyatini anglab olish talab etiladi. Shu sababli uning manbalarda yoritish holatini tahlil qilish asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usining shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beruvchi mezonlarni yaratishga urinib ko'ramiz.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy konpetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda "rivojlanish", "tarbiyalash", "shakllantirish", "omil", "pedagogik ta'sir", "milliy g'urur", "tarixiy tafakkur" va "milliy o'zlikni anglash" kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot muammosini ijobji hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Ko'plab adabiyotlarda «shakllanish», «rivojlanish», «tarbiyalash», ayrim manbalarda esa «ijtimoiylashuv» tushunchalarining yagona mantiqqa egaligi qayd etiladi. «shakllantirish» va «rivojlanish» tushunchalarining o'zaro bir-birini o'rnini to'ldiruvchi tushunchalar ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham mavjud.

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

Shaxsni tarbiyalash ta'lif jarayonini tashkil etish chog'ida ro'y berib, shaxsda ma'lum ma'nnaviy-axloqiy, irodaviy va shaxsiy xislatlarni qaror toptiradi. Tarbiya ijtimoiy hayotning umumiyligi va muhim kategoriyasi sanaladi. Shu bilan birga, ijtimoiy hodisa sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, ajdodlar tomonidan to'plangan tajribalarni avlodlarga yetkazish, insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni egallash, inson salomatligi va rivojini ta'minlash, dunyoqarashni tarkib toptirish va boshqalar shular sirasidandir. "Tarbiya, birinchidan, shaxs shakllanishi, madaniyat elementlarini, insoniy, milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshishini, ikkinchidan, tarbiya va madaniyatning o'zaro aloqadorligini ifodalaydi va bu tarixiy tafakkur asosida tarbiyalanganlik darajasini belgilab beradi".[3,128] Tarixiy tafakkur asosida tarbiya jarayonining samarasini maqsadning aniq belgilanganligi, faoliyat asosida tashkil etilgan faoliyatning natijalanganligi va uning mazmunida aks etuvchi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo'rayevlarning fikrlariga ko'ra «shaxs g'ururi – bu faxr», «milliy g'urur – bu iftixon»[4,17,18] bo'lib, ular garchi bir-birlariga yaqin ma'nolarni anglatsada, bir vaqtning o'zida bir-biridan ma'lum darajada farqlanuvchi tushunchalar ekanligi ta'kidlanadi. Bu o'rinda mualliflar quyidagi fikrni ilgari suradilar: «Tarixiy tafakkur millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o'rinn oladi». [5,29] "Tarixiy tafakkur tuyg'usi – o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati. Tarixiy tafakkur tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shan hissasidan g'ururlanish imkoniyati. Tarixiy tafakkur tuyg'usi – o'zligini anglash va o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch»dir.[5,288]

Ko'rinib turibdiki, mualliflar bu o'rinda g'urur tushunchasini shaxsga, iftixon tushunchasini millatga xos tuyg'u sifatida e'tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o'tasidagi farqni ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta'rifdan g'urur tushunchasi individuallik, iftixon tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

"Milliy g'urur (iftixon), – deb ta'rif beriladi manbalarda, - shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma'naviy meros, o'z

xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha".[6,24]

Bu tuyg'u shaxsda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo'lmaslik;
- xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo'lish;
- o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini asrab-avaylash;
- xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish to'g'risida qayg'urish;
- xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Tarixiy tafakkur hamda milliy tarbiya, avvalo, oilada kamol topishini chuqur anglagan holda har bir oilani madaniy merosimiz va tariximizdan chuqur xabardor qilish va shu orqali kelajak avlodni vatanga sadoqat ruvida tarbiyalab borishimiz muhin omil, vosita hisoblanadi. Ustoz pedagog T.Egamberdiyeva oila tarbiyasi haqida so'z yuritib uning madaniy ozuqasi milliy merosimiz deganlari ayni haqiqatdir. Jumladan, "oila tarbiyasi har qancha o'ziga xos, betakror bo'lmasin, u, asosan, yagona manbadan oziqlanib, o'sib-o'zgarib, boyib boradi. Bu manba milliy-madaniy merosdir. Binobarin, avvalo aytib o'tilganidek, oila tarbiyasi milliy madaniy merosning uzviy bir qismi bo'lib, unda shu millat asrlar davomida to'plab qo'lga kiritgan barcha madaniy boyliklar sintezi mujassamlashgan bo'ladi." [7,171]

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda o'zbek xalqining boy o'tmishidan faxrlanish, jamiyatda ozod, farovon va erkin hayotni yaratish yo'lida mehnat qilish, faoliik ko'rsatish, jahon hamjamiyati tomonidan ilm-fan, texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalardan foydalanish tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantiradigan, rivojlantiradigan omillardir. Bu esa, o'z navbatida, ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodning kuchi, salohiyati, buniyodkorlik faoliyatini belgilaydi, ularni sog'lom milliy g'urur, tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi. Bu safarbarlik va tarixiy tafakkurni o'sib kelayotgan yosh avlodda qaror toptirish uchun ta'lim tizimi katta imkoniyatlarga ega. Chunki bugungi kunda ushbu maskanlarda o'zbek xalqining o'tmishi, ajdodlarning boy ma'naviy merosi, bugungi buniyodkorlik faoliyati keng ko'lamda o'rgatilmoqda.

N.Erkaboyeva o'zining doktorlik dissertatsiyasida talaba yoshlarni manan yetuk, aqlan teran etib tarbiyalashda quyidagi tavsiyalarni ilgari surgan:

- Milliy g'oya va milliy mafkura asosida yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini samaradorligini oshirish;
- Ta'lim tizimini milliy an'analar, zamonaviy va xorijiy tajribalar asosida mazmunan va uslubiy jihatdan yangilash;
- Ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodologik ilmiy-nazariy va metodik ta'minotini yaratish orqali pedagogika sohasidagi tadqiqotlarga tarixiylik tafakkurini singdirish.[8,37]

Bundan shuni anglashimiz mumkinki, nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishga balki, pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda ham tarixiy tafakkur, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, vatanga muhabbat g'oyalarini singdirib borishimiz lozim.

"Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"da kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatini inson intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlusiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Modomiki, davlat barkamol shaxsni tarbiyalashni talab etar ekan, bu ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy meros, tarixiy tafakkurning ajdodlar siyosida namoyon bo'lganligini anglab yetishi, bu tuyg'uni o'zida singdira olishi, jamiyatda bu yo'lida keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish kerak.

Zero, "Faqtgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin".[9,67]

Tarixiy tafakkur tuyg'usi milliy mansublikni chuqur anglash, uni e'zozlashga ma'naviy-ruhiy jihatdan kelib chiqqan ehtiyoj mahsulidir. Tarixiy tafakkur, eng avvalo, o'zligini anglash, milliy ravnaqni ta'minlash yo'lidagi xatti-harakat, o'z millati istiqboli oldida mas'ullikning beqiyos namunasidir. Tarixiy tafakkur tuyg'usiga ega bo'lgan har bir kishi o'z millati o'tmishini yaxshi bilgan, qadrlay olgan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar, holatlarda boyitib boradigan barkamol

## PEDAGOGIKA

shaxsdir. Shu bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlod boshqa millatlar milliy an'analarini, san'ati va madaniyatini hurmat qilish qobiliyati, ularni anglash salohiyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Tarbiya - jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Jamiat esa nomilliy bo'la olmaydi. Tarbiya yordamida avlodlarning sinalgan, eng ma'qul, taraqqiyat parvar tajribasi o'zlashtiriladi va yangi avlodga yetkaziladi, odamlarning ongi, xulqiga shu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlari singdiriladi, yetakchilik qilayotgan mafkura o'zlashtiriladi.

Ma'lumki, milliy mafkura, milliy taraqqiyot, tarixiy mansublik kabi muqaddas qadriyatlarni xalq keng va teran idrok etmoqda. Mamlakatimiz yangi renessans qurish yo'lida asosiy e'tiborni ta'llim va tarbiya tizimiga qaratmoqda. Tub o'zgarishlar amalga oshirilib, ta'llim va tarbiya tizimi keng isloh qilindi. Bu o'zgarishlar odamlarning ongi va tafakkuriga ham ijobjiy ta'sir etmoqda. Binobarin, o'sib kelayotgan yangi avlod dunyoqarashida tarixiy tafakkur tarzida namoyon bo'lmoxda.

Bu tuyg'uni rivojlantirish, barqaror e'tiqodga aylantirish ta'llim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Demak, tarixiy tafakkur tuyg'usining mohiyatini yanada chuqur, puxta anglash, vatanni sevish, u bilan faxrlanish, vatan sharafini himoya qilish uchun yoshlar nimalarga e'tibor berishi kerakligini ta'llim-tarbiya jarayonida yoshlarga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Agarda milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi, milliy g'ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir individ o'ziga xos milliy-madaniy an'analar, me'yorlari bo'lgan jamiyatda shakllanadi.[10,6]

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar mazmunidan shu narsa ayon bo'ldiki, bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalarini yoritib bergen maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Muammoni tadqiq etish mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning quyidagi yo'llari samarali ekanligini isbotladi:

- xususiy fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarga milliy qadriyatlар, ularning ijtimoiy ahamiyati, o'zbek xalqining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlarni berishga jiddiy e'tibor qaratish;

- bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy konpetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirish jarayonida ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanish;

- bosh g'oyasi maishiy muammolardangina iborat bo'lib, g'oyaviy saviyasi va ijro mahorati past bo'lgan musiqa va kino san'ati namunalarining ommaviy axborot vositalari sahifalaridan o'rin olishiga nisbatan jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, shu bilan birga, gazeta va jurnallarda imkonи boricha ko'proq ijtimoiy ong va shaxs dunyoqarashini boyitish, fuqarolarda fikrlash layoqatini shakllantirish;

- ishlab chiqarish va ijod sohalarida samarali faoliyat yuritayotgan zamona qahramonlarini yoshlarga tanishtirishga alohida e'tibor qaratish va bu yo'lda faollik ko'rsatish;

- yoshlarda umummillat va jamiyat manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan yuqori qo'ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to'laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo'lida mehnat qilishlariga erishish uchun psixologik va pedagogik sharoit yaratish;

- yoshlar o'rtaida vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi tadbirlarning keng ko'lam va yuksak saviyada tashkil etish an'anasi qayta tiklash;

- bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy konpetensiyasini tarixiy tafakkur tuyg'usi asosida shakllantirishning psixologik-pedagogik va falsafiy jihatlarini yaxlit holda o'rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo'llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o'rganish kabi jarayonlar muammoga yechim bo'lishi mumkin.

## XULOSA

Yuqoridagi taxliliy ifodalangan fikrlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish jarayonining mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin:

- bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur hamda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat bo'lib, bu muammoning hal etilishi milliy mustaqillikni mustahkamlash va millatning xalqaro maydonidagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi.

- o'quv fanlarning bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatini aniqlash va shu asnoda ta'llim va tarbiyaga yo'naltirish;

- pedagogik shart-sharoitlar, omillarni o'rganish, ta'llim va tarbiyaviy ishlar mazmunida bu masalaning aks etishiga erishish, ularning milliy madaniyat, tarix va qadriyatlarni mohiyatini yorituvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida ko'ngilli, majburlovlsiz ishtirot etishlariga erishish;

- Yuksak salohiyatlari xodimlarni tayyorlashda ularni badiiy adabiylargacha qiziqtirish hamda ushbu badiiy adabiyotlarning vatanparvarlik va tarixiy tafakkurga yo'g'rilganligini nazorat qilish;
- Bugungi globallashuv hamda siyosiy jihatdan o'ta tahlikali zamonda bo'lajak o'qituvchilarda ahborot bilan ishslash kompetensiyalarini ta'lim jarayonida shakllantirish muhim omil sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. To'xtaho'jayeva M.X., Nishonova S, Hasanboyev S va b.oq "Pedagogik. Pedagogika nazariyasi va tarixi. I qism. Pedagogika nazariyasi" T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat", 2010-yil - bet 58 (Tokhthojayeva M.Kh., Nishonova S, Hasanboyev S and others "Pedagogical. Theory and history of pedagogy. Part I. Theory of Pedagogy" T.: "National Society of Philosophers of Uzbekistan", 2010 - page 58)
2. Mirziyoyev Sh "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi", T.: "O'zbekiston", 2017-yil, -bet 23 (Mirziyoyev Sh. "Rule of law and ensuring human interests - a guarantee of the country's development and people's well-being", T.: "Uzbekistan", 2017, -p. 23)
3. Yo'ldashev O' "Umumiyligining pedagogika" T.: "Fan va texnologiya", 2017-yil, 128-bet (Yo'ldashev O' "General pedagogy" T.: "Science and technology", 2017, -page 128)
4. Jo'rayev N "Tarixiy falsafanining nazariy asoslari". T.: "Ma'nnaviyat" 2008-yil, 17-18-bet (Jorayev N. "Theoretical foundations of historical philosophy". T.: "Spirituality" 2008, -p 17-18)
5. Ibrohimov A. va boshqalar. "Vatan tuyg'usi" Tashkent.: 1996. 29-30-bet (Ibrohimov A and others. "Feeling of the Motherland" Tashkent.: 1996. - p. 29-30)
6. Musurmonova O. "Oila ma'nnaviyati – milliy g'urur" Tashkent.: 1999. 24-bet (Musurmonova O. "Family spirituality - national pride" Tashkent.: 1999. - page 24)
7. Egamberdiyeva T. "Oilada ijtimoiy muhit va gender tengligi". FarDu ilmiy ahborotnomasi. 5-son, 2021-yil. – bet 177 (Egamberdiyeva T. "Social environment and gender equality in the family". FerSu Scientific Bulletin. Issue 5, 2021. - page 177)
8. Erkaboyeva N.Sh "Mustaqillik yillarda O'zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlansishi" doktorlik dissertatsiyasi aftoreferati, T.: 2007 yil. 37-38-bet (Erkaboyeva N.Sh "Development of Pedagogical Thoughts in Uzbekistan in the Years of Independence" Doctoral Dissertation Abstract, T.: 2007. - page 37-38)
9. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. 67-bet (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" - T.: Uzbekistan, 1997. - page 67)
10. Quronov M, Daminova I, Bozorov O, Akramova Sh "Milliy tarbiya va yoshlar", T.: "Kamalak", 2016-yil, 6-bet (Kuronov M, Daminova I, Bozorov O, Akramova Sh "National education and youth", T.: "Rainbow", 2016, -page 6)

(Taqrizchi: T.Egamberdiyeva – pedagogika fanlari doktori, professor).